

## IBROYIM YUSUPOV ASARLARINI O'QITISH METODIKASI

*Bekbergenova Mariya Do'sbergenovna,  
Ajiniyaz nomidagi NDPI Qoraqalpoq adabiyoti kafedrası,  
filologiya fanları nomzodi, professor  
[bekbergenova53@mail.ru](mailto:bekbergenova53@mail.ru)*

**Annotatsiya.** I.Yusupov asarlarini o'qitish metodikasi o'quvchilarga uning ijodini chuqurroq tushunishga yordam beradigan turli pedagogik usullardan foydalanishni taqozo etadi. Klaster tarmoq usulidan foydalanib, uning lirik asarlarini o'rGANISHDA keng tushunchalar beriladi. Shu bilan birga, vizual materiallar, video va audio texnologiyalar yordamida o'quvchilarning tasavvuri va qiziqishi oshiriladi.

**Kalit so'zlar.** Metodika, klaster usuli, vizual materiallar, texnologiyalar, lirik asarlar.

## İBRAYIM YUSUPOV'UN ESERLERINI ÖĞRETME METODOLOJISI

*Bekbergenova Maria Dosbergenovna  
Ajiniyaz adina NDPI Karakalpak edebiyati bölümü,  
filoloji bilimleri adayı, professor*

**Özet.** I.Yusupov'un eserlerini öğretme metodolojisi, öğrencilerin onun eserlerini daha derinlemesine anlamasına yardımcı olan çeşitli pedagojik yöntemlerin kullanılmasını gerektirir. Küme ağ yöntemi kullanılarak, onun lirik eserlerini incelemek için geniş bir anlayış sağlanır. Aynı zamanda, görsel materyaller, video ve ses teknolojileri yardımıyla öğrencilerin hayal gücü ve ilgisi artırılır.

**Anahtar kelimeler.** Metodoloji, küme yöntemi, görsel materyaller, teknolojiler, lirik eserler.

## МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯМ ИБРГАИМА ЮСУПОВА

*Бекбергенова Мария Досбергеновна,  
Кафедра каракалпакской литературы НГПИ имени Ажинияза,  
кандидат филологических наук, профессор*

**Аннотация.** Методика преподавания произведений И.Юсупова требует использования различных педагогических методов, помогающих учащимся глубже понять его творчество. С помощью кластерной технологии представляются широкие понятия для изучения его лирических произведений. Кроме того, использование визуальных материалов, видео и аудио технологий способствует расширению воображения и интереса учащихся.

**Ключевые слова.** Методика, кластер методика, визуальные материалы, технологии, лирические произведения.

## METHODOLOGY OF TEACHING WORKS IBRGAIMA YUSUPOVA

*Bekbergenova Maria Dosbergenovna,  
Ajiniyaz NSPI Karakalpak literature department,  
candidate of philological sciences, professor*

**Annitation.** The methodology of teaching Ibrohim Yusupov's works involves using various pedagogical methods to help students gain a deeper understanding of his creativity. By applying the clustering method, broad concepts of his lyrical works are presented. Additionally, the use of visual materials, video, and audio technologies enhances students' imagination and interest.

**Keywords.** Methodology, cluster method, visual materials, technologies, lyrical works.

O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri I. Yusupovning ijodi qoraqalpoq adabiyoti tarixida katta o‘rin egallaydi va bizning milliy she’riyatimizning rivojlanish tarixiy bosqichlarining eng baland cho‘qqisi hisoblanadi. Shuning uchun I. Yusupovning asarlarini o‘rganish bugungi adabiyotshunoslik ilmining va adabiyotni o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanining muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Umumta’lim maktablarida I. Yusupovning ijodi adabiy portret sifatida o‘qitiladi. Shoир ijodiga sharh yozish uchun klaster usulidan foydalanish kerak. Chunki bu usul asosida shoир ijodiga butunlay keng tarzda tushuncha berish mumkin. Klaster texnologiyasi bu tarmoqlanish usuli bo‘lib, u o‘quvchilarga ma’lum bir mavzuni tarmoqlarga bo‘lib chuqr o‘rganishlariga yordam beradi.

O‘quvchilar I. Yusupovning hayoti va asarlari bo‘yicha boshlang‘ich sinfdan boshlab tushunchaga ega. Ularning shoир haqidagi bilimlarini esga tushirish maqsadida savol tashlanadi. Taxtaga quyoshning surati chizilib, undan nur sochish kerak.

“O‘qituvchi darslikdan va I. Yusupov ijodi bo‘yicha yozilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalangan holda, keng va aniq qilib, shoирning hayoti, asarlari haqida to‘liq tushuncha bera olishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi chuqr nazariy bilimga va shoир asarlari bo‘yicha keng ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham o‘qituvchidan mavzuni tushuntirishda kasbiy bilim, pedagogik, metodik mahorat talab etiladi” [1.87.]

I. Yusupovning ijodi bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar qilgan [2.510.]. Klaster metodi bilan o‘qitishda, birinchi navbatda, shoир asarlari tilga olinadi. O‘quvchilarga tanish bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasining madhiyasi bilan boshlash to‘g‘ri bo‘ladi. I. Yusupov shoир ekanligini ko‘rsatadigan asarlari tarmoqqa tiziladi. Keyinchalik 1955 yili chiqqan «Вахыт лирекасы» she’rlar to‘plamiga kirgan asarlari «О‘тан muxabbati», «Paxtakesh baba», «Institut yestelikleri», «Кynshыig‘ыс jolao‘shыsына» to‘plamiga kirgan «Кynshыig‘ыс jolaushыsына» «Qara tal», «Kegeyli», «Al- Beruniy tuo‘ylg‘an jerde», «Oylar» to‘plamiga kirgan she’rlardan «Qydiretli shыnar haqqыnda qosыq», «Tasqыn bolыр ag‘ыр ет», «Jeti asыгым» she’rlar to‘plamiga kirgan «Shыбыг‘ы сынса shыnardың», «Altын qollar», «Jeti asыгым», «Qobыз», «Nog‘aylarga», «Qaraqalpaqtы көр maqtama kөzimshe», «Tally jag‘ыstag‘ы yeske tysirio‘ler», «Shөgirme», «Tuo‘g‘an jer», «Sekseo‘il», «Төк тао‘ыndag‘ы oylar», «Ao‘ыл, ao‘ыл» yana boshqa she’rlarini slaydga terib o‘quvchilarga ko‘rsatish mumkin.

I. Yusupov yozuvchi: 1963-yili uning «G‘arrы tutag‘ы guz» ocherk, «Seydan garryның geo‘ishi» hikoya, «Yesten shыqpas yeki tyn» hikoya, «Shayыrдың вахты» maqola, «Nəkiste baxar» humor, «Jasarыр, jayna, Qoңыrat» (yozuvchining yo‘l daftaridan), «Haptedegi segiz jigit» (yozuvchining yo‘l daftaridan), Shoирning publisistik asarlari «Səo‘ir-Shыig‘ыс samалы», «Paxta xalqытыздың maqtanышы» va b.

I. Yusupov dramaturg: A. Shamuratov bilan hamkorlikda «Qыгық qызы» pesasini yozgan. 1966-yili «Өміrbek lakkы» komediysi, 1986-yili «Iskender patshanың tysi» dramasi 1973-yili «Әjiniyaz» operasining librettosini yaratdi.

I. Yusupov adabiyotshunos: Uning qoraqalpoq adabiyotining masalalari bo‘yicha «Lirika haqqыnda səylesio» (1956), «O‘atandarlyk urystan keyingi qaraqalpaq poeziyasы» (1956), «Халық shayыры Abbaz Dabylov» (1958), «Dala orfeyi» (1975), «Qaraqalpaqstan Maktumqulyның yekinshi shayыrlыq Uatanы» (1959), «Maqtumqulu həm qaraqalpaq ədebiyaty» (1957), «Maqtumqulyның shыg‘armalarын ao‘darю ‘dag‘ы ауыгым alag‘atlыklar haqqыnda» (1983) kabi bir qancha maqolalarning muallifi.

I. Yusupov tarjimon: Shoир o‘z ona tiliga dunyo xalqlarining eng mashhur shoirlarining asarlarini tarjima qilgan. Shular ichida A.S. Pushkinning, M.Yu. Lermontovning, T.Shevchenkoning, Vilyam Shekspirning sonetlarini, Umar Xayyomning ruboiyalarini, Alisher Navoiy va Hofizning g‘azallarini, Bayronning, Gyotening, Geyne, Shillerning va h.k. asarlarini tarjima qilgan. Ushbu badiiy tarjimalar orqali bizning adabiyotimizga yangi lirik shakllar, mavzular

va obrazlarni olib kirdi, shunday qilib, milliy adabiyotimizni g‘oyaviy-badiiy, shakliy jihatdan har tomonlama boyitdi.

I.Yusupov - Vatan farzandi: Uning har bir lirik she’rlarida Vatanga chuqur muhabbat tuyg‘ulari kuyylanadi.

*Tuo ‘ыласаң dese mag ‘an jyz ret,  
Tekte isы jerde tuo ‘ылар yedim,  
Jalaң ayaq may торыгаңты shaңg ‘ытыр,  
Barлық soqpag ‘ынан juo ‘ы rar yedim  
Burғыр aqqan ыlay suo ‘ын Әмio ‘diң,  
Jyzlerime syrtip juo ‘ыnar yedim,  
Bunda tereң tamыr urgan terekpen,  
Uatan mag ‘an men O ‘atang ‘a kerekpen.» [4.]*

Shuningdek, I.Yusupov ijodi bo‘yicha umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga chuqur va keng ma’lumotlar berishda zig-zag, insert, loyiha va h.k. usullaridan foydalanish mumkin. Ayniqsa, loyiha usulida o‘qitish nazariy bilimlarga tayanib, amaliy masalalarni yechishda yordam beradi. Masalan I. Yusupovning poemalarini o‘qitishda loyiha usulining imkoniyatlari katta.

I.Yusupov asarlarini o‘qitishda vizual materiallardan (rasmlar, xaritalar, videomateriallar) foydalanish o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. Masalan, asar ichidagi muhim voqealar yoki obrazlar haqida slayd-shou yaratib, o‘quvchilarga ko‘rsatish mumkin. Bu metod matnni yanada jonli va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Shuningdek, texnologiyalarni qo’llash orqali o‘quvchilarga asarlarni yangi formatlarda taqdim etish mumkin. Masalan, video va audio fayllar, podkastlar yoki interaktiv dasturlar yordamida asarlarni o‘rganish yanada qiziqarli va oson bo‘ladi. O‘quvchilarga kitobni o‘qish o‘rniga u haqidagi qisqa video yoki animatsiyalarni ko‘rsatish, ularning o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ibroyim Yusupov asarlarini o‘qitishning qiziqarli va samarali metodlari yordamida o‘quvchilar nafaqat adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradilar, balki o‘z fikrlarini mustahkamlash, ijodiy fikrlash va tahvil qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Bu metodlar o‘quvchilarga nafaqat o‘qish, balki o‘z fikrlarini erkin ifodalash va mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini beradi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Palymbetov K., Pirniyazov I., Berdimuratova R.. Өdebiyatty oqityuо metodikası. Metodikalыq qollanba, – Nekis.
2. Paxratdinov Ә., Allambergenov K. Bekbergenova M. XX əsir qaraqalpaq ədebiyatı tarыхы. – Nekis, «Qarakalpaqstan», 2011.
3. Allambergenov K., Orazimbetov Q., Paxratdinov Á., Bekbergenova M. XX ásir qaraqalpaq ádebiyatı tariyxı. II bólüm. – Tashkent, Sano-standart. 2018.
4. Yusupov I. Taңlamalы shyg‘armalarы. Ysh tomlyiq. – Nekis: «Bilim», 2018.